

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 18 - iyul

222-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani “Faravon” MFY va  
“Tosh yop” OFY hududidan doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni  
ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, “Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va “Yer to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-sentyabrdagi “Islom taraqqiyot banki va opek xalqaro taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida «Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5246-sonli qarori ijrosi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi DUKning 2023-yil 11-iyuldagi 01/4-8/1183-sonli buyurtma xati hamda Amudaryo tumani hokimligining 2023-yil 13-iyuldagi 03-446-son xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Amudaryo tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan “Faravon” MFY hududidan maktabgacha ta'lim tashkiloti binosi qurilishi uchun 0,24 gektar hamda “Tosh yop” OFY hududidan qishloq vrashlik punkti binosi qurilishi uchun 0,09 gektar yer maydonlari 1-2-ilovalarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi DUKga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi DUK (I.Niyazov) belgilangan tartibda:

- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;
- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;
- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritish choralarini ko'rsin.


5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 18-iyuldagi  
222-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova



Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 18-iyuldagi  
222-13-0-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

